

## **KIYIM FURNITURASI KOMPOZITLARI**

**Amurillayeva Munira**

Texnologik ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar: prof. D.I.Kamalova**

Navoiy davlat universiteti

Kiyim va uning elementlari ham boshqa predmetlar kabi dizayn obyekti hisoblanadi. Kiyim predmetlar orasida inson bilan eng ko’p bog’liq bo’lib, uning turmush tarzidagi o’zgarishlarni aks ettirib turadi. Kiyim kishilik jamiyatni rivojlanishining ilk bosqichlarida paydo bo’lgan. Hayvonlar terisi, baliq ichaklari, o’simliklar va hokazolar kiyim uchun material bo’lgan.

Kiyim – inson tanasidagi qobiqlar yig’indisi bo’lib, uni atrof-muhitning salbiy ta’sirlaridan saqlab turgan: sovuqdan va jazirama issiqdan, qor, yomg’ir va shamollardan, hasharotlarning chaqishidan, yovvoyi hayvonlarning tirnoqlari va tishlaridan, nayza va qilichlarning zarbidan, o’q va zaharli moddalardan va hokazo.

Qadimgi kiyimlar ham, hozirgi zamonning an’anaviy kiyimlari ham insonni nafaqat jismoniy ta’sirlardan va iqlimning noqulay sharoitlaridan himoya qiladi, balki yovuz kuchlarning ta’siridan ham asraydi. Demak, ibtidoiy xalqlarning tanani jangovor rasmlar bilan qoplashi va tatuirovkalarini ham, o’rta asr harbiylarining qalqonlarini ham, hozirgi bronejilet va protivogazlarni ham, zamonaviy modadagi ko’ylakni ham kiyim deb hisoblash mumkin ekan.

Hozirgi davrda kiyim tushunchasi bevosita badanga kiyiladigan kiyimlarni, poyafzalni, bosh kiyimlarni, qo’shimchalar (qo’lqoplar, sharflar, kamarlar, sumkalar va hokazo) ni o’z ichiga oladi. Kiyimning asosiy vazifasi himoyaviy (jismoniy va ruhiy) va amaliy vazifalardir, chunki kiyim insonning biron bir faoliyati bilan bog’liq bo’lib, uni tevarak-atrofidagi olamga moslashishi uchun muhim ahamiyatga ega. Kiyim tarkibidagi istalgan buyum bir yoki bir necha vazifani bajaruvchi sifatida ishlataladi. Shu bilan birga kiyim estetik vazifani ham bajaradi: insonni bezaydi, kiyimda go’zallik va foydalilik tushunchalari o’zaro chambarchas bog’liqdir. Har qanday boshqa buyum kabi kiyim ham iste’mol buyumidir. Kiyim kiyish – bu ana shu mahsulotni iste’mol qilish demakdir. Kiyim muayyan odam uchun yakka tartibda buyurtma asosida tikilgan bo’lishi yoki yuz minglab nusxada sanoat ishlab chiqarishida tayyorlangan mahsulot bo’lishi ham mumkin. Har qaysi holda ham u insonning ma’lum bir ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi.

Kiyim dizayni – dizayn faoliyati yo’nalishlaridan biri bo’lib, uning maqsadi insonning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondiruvchi buyumlar olami elementlaridan biri bo’lgan kiyimni loyihalashdan iborat. Kiyimlarning dizayni albatta ularda ishlataladigan furnituralar bilan bog’liqdir.

Kiyim furniturasini va bezak materiallariga – tugmalar, ilgaklar, izmalar, pistonlar, taqilmalar, jiyaklar, tasmalar, bog’ichlar, to’rlar, marjonlar kiradi. Bundan tashqari, kiyimlarni bezatishda gazlama, mo’yna, charm, zamsha kabilardan ham foydalilanildi.

Tugmalar – kiyimni bezatishda va ilgakni yasash uchun ishlataladi. Tugmalarga qo’yiladigan asosiy talablar quydagilardan iborat: ular mustahkam, suv ta’siriga chidamli,sovunli eritmada qaynatilganda tashqi ko’rinishi, qiyofasi, bo’yog’i buzilmasligi talab qilinadi.

Tugmalar tayyorlanadigan materiallarning xillari ham ko’p. Bular jumlasiga plastmassa, yog’och, shisha, metallar, suyak va boshqalar kiradi.

Aminoplast kukunidan presslab tayyorlangan tugmalar mustahkam, suv ta'siriga chidamli, 80°C gacha issiqqa chidaydi.

Akrilat tugmalar shaffof, mustahkam, yorug'lik, suv va sovuq ta'siriga chidamli, har xil ranglarga oson bo'yaldi, lekin issiq havo ta'siriga unchalik chidamli emas.

Sadaf tugmalar jilvalanib turadi, issiqlik, suv, ishqor va kislota ta'siriga chidamli.

Shisha tugmalar har xil rangli va mo'rt bo'ladi.

Yog'och tugmalar suv ta'sirida shishib, shakli va yaltiroqligini yo'qotadi.

Suyak tugmalar issiqlik ta'siriga chidamli, ancha mustahkam, lekin ma'lum vaqt o'tganda sarg'ayib ketadi.

Metallardan olingan tugmalar ancha mustahkam va kimyoviy moddalar ta'siriga turg'un.

Izmalar va ilgaklar – o'zining vazifasi va o'lchovlari jihatdan har xil bo'ladi.

Ustki kiyimlar va ko'ylaklar uchun ishlatiladigan ilgak va izmalar po'lat yoki mis-rux qotishmalaridan qilingan simdan tayyorlanadi. Ularni zanglashdan saqlash uchun lok, bo'yoqlar, nikel yoki kumush bilan bo'yaldi. O'lchovlari jihatidan ilgak va izmalar quydagi nomerlarga bo'linadi: №2 ilgakning uzunligi 24 mm; №3 ilgakning uzunligi 20 mm; №5 ilgakning uzunligi 16 mm; №6 ilgakning uzunligi 11 mm; №7 ilgakning uzunligi 9 mm.

To'qalar – shim va nimchalar uchun po'latdan tayyorlanadi va lokланади. Shakli jihatdan bir tomonida tishlari va o'rtasida ikkita kashagi bo'lgan to'rtburchak shaklli yoki o'rtasida ikkita tili bo'lgan to'rtburchak shaklli xillari bo'ladi. Palto, kostyum, ko'ylaklar uchun turli rang, shakl va o'lchovli plastmassa yoki yog'och to'qalar ishlab chiqariladi.

Pistonlar – nikellanib, kumushlanib yoki loklanib ishlab chiqariladi va ko'ylak, bluzka, yubka, bolalar buyumlari va bosh kiyimlarga qadash uchun ishlatiladi. Piston ikkita qismdan: chiqig'i bor asosi hamda prujina va chuqurchasi bor ustki qismdan iborat. Prujina silliq va qayishqoq bo'lishi lozim. Pistonlar 7-9 mmli diametrda ishlab chiqariladi.

Molniya taqilmasi – mato to'qish usulida olingan ikkita bort jiyaklardan iborat bo'lib, jiyaklarda metall yoki plastmassa halqalar joylashgan bo'ladi. Ulardan tashqari qulfi ham bo'ladi. Bularning po'lat detallari nikellanadi, bo'yaldi yoki loklanadi. Halqalarning eni 3-10 mm va taqilmaning uzunligi 120, 150, 180, 200, 250, 300 mm va undan ortiq bo'ladi.

Jiyak – eni har xil o'lchovli gazlamasimon material. Ularni ishlab chiqarishda sun'iy va sintetik kompleks iplar, paxta, viskoza, jun, zig'ir tolalardan olingan iplar, spandeks va rezina iplari, metallardan olingan iplar ishlatiladi. Tikuvchilikda ishlatiluvchi jiyaklar ma'lum mustahkamlikka va zichlikka ega, bir tekis enli, cho'zilmaydigan milkli, tashqi ko'rinishi chiroyli bo'lishi kerak.

Tasmalar ham kiyimni bezatishda ishlatiladi. Ular trikotaj usulida yoki chirmalash usulida ishlab chiqariladi. Buning uchun turli tolali tarkibga ega iplar, paxta, viskoza, sintetik tolalar va ularning aralashmalaridan olingan iplar qo'llaniladi.

Bog'ichlar – dumaloq tuzilishdagi iplarni trikotaj usulida to'qish, eshish, chirmalash yo'li bilan olinuvchi to'qimachilik buyumlari. Bog'ichlarni ishlab chiqarish uchun paxta, jun, ipak tolalardan olingan iplar yoki kapron, viskoza, lavsan tolali birikkan iplar ishlatiladi.

To'rlar – iplarni chirmalash trikotaj to'qish yoki kashta usulida olinadi. Ishlab chiqarish usuliga ko'ra qo'lda yoki mashinada to'qiladigan turlarga bo'linadi. Iplarni chirmashtirib olinadigan

to'rlar paxta yoki jun tolali iplardan, sun'iy va sintetik kompleks iplardan maxsus mashinalarda ishlab chiqariladi.

**Foydalanimgan adabiyotlar**

1. F.A.Umarova. "Kompozitsiya asoslari". Toshkent. TDPU. 2015.
2. D.I.Kamalova. "Kompozit materiallar". Navoiy. Aziz-kitobxon. 2024.